



XALQ PEDAGOGIKASIDA DOSTONLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Ziroat Xolmatova Anvarovna
Qo`qon davlat universiteti
Pedagogika kafedrası professori

Annotatsiya: maqolada xalq pedagogikasida dostonlarning tarbiyaviy funksiyasi, ularning shaxs tarbiyasidagi roli, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishdagi o`rni tahlil qilinadi. Dostonlarning tarixiy ildizlari, badiiy ifodasi va zamonaviy pedagogik jarayonlarda qo`llanilishi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit soʻzlar: xalq pedagogikasi, doston, tarbiyaviy ahamiyat, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy tarbiya, ogʻzaki ijod.

Аннотация: статья посвящена воспитательной функции народных эпосов, их роли в формировании личности, нравственных и социальных ценностей.

Ключевые слова: народная педагогика, эпос, воспитание, нравственные ценности, социальное воспитание, устное творчество.

Abstract: the article examines the educational function of folk epics, their role in personality development, and their impact on moral and social values.

Key words: folk pedagogy, epic, educational significance, moral values, socialization, oral creativity.

Dostonlar [oʻzbek xalq](#)ining ogʻzaki [ijodi](#)da keng tarqalgan janr boʻlib, maʼlum bir voqealar liro-epik tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Dostonning oʻziga xos xususiyati quyidagilarda aks etadi:

- [hayot, voqelik](#) keng koʻlamda qamrab olinadi;
- bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi;
- personajlar koʻp boʻladi;
- [syujeti](#) sertarmoq, rang-barang boʻladi.

Dostonlarda tarixiy voqealar, vatanparvarlik, qahramonlik, insonparvarlik, mehr-muhabbat, doʻstlik va sadoqat, mehnatsevarlik gʻoyalari ilgari suriladi va milliy qadriyat, urf-odatlar, oʻtmishimizdagi kechinmalar, adolat, haqiqat timsollari aks ettiriladi. Ilk dostonlar Yunonistonda paydo boʻldi. Ularda [afsonaviy](#) qahramonlarning jasorati, xudolarning karomati haqida kuylangan. [Gomerning "Iliada"](#) va "[Odisseya](#)", [Dantening "Ilohiy komediya"](#), [Firdavsiyning "Shohnoma"](#) asarlari doston janrining qadimiy namunalaridandir.

Dostonlar, oʻz mohiyatiga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi:

- qahramonlik. Bu turdagi dostonlarida xalq, [jamiyat](#) takdiri tasvirlanadi. Masalan, "[Alpomish](#)", "[Farhod va Shirin](#)" dostonlari

- sarguzasht-detektiv. Bu turdagi dostonlarda jumboqli vaziyatlar va qahramonlarning murakkab vaziyatlardan chiqishi aks ettiriladi. Masalan, "Sabbai sayyor" dostoni

- ishqiy-romantik. Bu turdagi dostonlarda [oshiq](#)-ma'shuklarning sarguzashti bosh o'zida turadi. Masalan, "[Tohir va Zuhra](#)", "[Layli va Majnun](#)" dostonlari.

- [jangnoma](#). Bu turdagi dostonlarda tarixiy va afsonaviy janglar, ayrim afsonaviy va tarixiy shaxslar ko'rsatgan mardlik va qahramonliklar mubolag'ali hamda ko'tarinki ruh bilan bayon qilinadi. Shuningdek, qahramonlarning, xususan, bosh qahramonning kuch-qudrati, qurol-yaroqlari, jangi va jasorati g'oyat bo'rttirib tasvirlanadi. Masalan, "[Yusuf va Ahmad](#)", "[Saddi Iskandariy](#)" dostonlari.

- [tarixiy-memuar](#). Bu turdagi dostonlarda biror tarixiy [shaxslar ramziylashtirilib](#), bo'rttirib tasvirlanadi. Masalan, "[Shayboniynoma](#)", "[Jizzax qo'zg'oloni](#)" dostonlari.

- [falsafiy](#) "[Hayrat ul-abror](#)"

- [fantastik-allegorik](#) "[Lison uttayr](#)"

- [didaktik](#) "[Qutadg'u bilig](#)"¹

O'zbek dostonchiligi asrlar davomida rivojlanib, boyib borgan. Dostonlarning asrdan-asrga, yildan-yilga rang-baranglashib borishini dastlab yaratilgan va tosh bitiklarga o'yib yozilgan O'rxun-Enasoy bitiklarida, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarlarida, shungdek ularning yorqin namunalaridan "Alpomish" va "Go'ro'g'li" turkum dostonlarida aks etgan badiiy tasvirlar, g'oya va tuzilish jihatidan izchillik misolida ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy o'zbek folklorshunosligida yetakchi olimlar va doston aytuvchilar tomonidan ham "Alpomish" dostonining xususiyatlari ulardagi obrazlar tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, J. Eshonqulov, A. Poyonov, Umir baxshi Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, To'ra Mirzayev, Shomirza Turdimov kabi folklorshunos olimlar va doston aytuvchilar ijrosini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Xalq pedagogikasida dostonlar badiiy-ma'rifiy meros sifatida tarbiyaviy vosita bo'lib, o'zida milliy ong, axloqiy qadriyatlar, tarixiy xotira va ijtimoiy tajribani jamlab avloddan-avlodga og'zaki shaklda o'tib kelayotgan janr. Dostonlarning pedagogik ahamiyati shaxs kamoloti va ijtimoiy moslashuv jarayonida beqiyosdir. Dostonlarning tarbiyaviy funksiyasi quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, ular axloqiy va madaniy qadriyatlarni shakllantiradi. Masalan, "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi dostonlar orqali jasorat, sadoqat, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar targ'ib qilinadi. Dostonlar bolalarga nafaqat qahramonlarning faoliyati orqali axloqiy qarorlar qabul qilishni o'rganadi, balki ularning o'zaro muloqotini, jamiyatdagi o'rni va mas'uliyatini tushunishga yordam beradi.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari ko'pgina xalqlar orasida juda keng tarqalgan bo'lib, ayrim

xalqlarda baxshilar tomonidan hozir ham kuylanib kelinmoqda. Bu dostonlar o'zbek, tojik, turkman, ozarboyjon, turk, qozoq, qoraqalpoq, arman, gruzin, kurd xalqlari epik ijodiyotida o'ziga xos turkumlarni tashkil etadi. Go'ro'g'li Sibir tatarlari, Bulg'or turklari, Eron ozarboyjonlari, Stavropol turkmanlari, Afg'oniston o'zbeklarining ham

1. [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

sevimli epik qahramonlaridan biridir. Turkumning ayrim lavhalari O'rta Osiyo (Buxoro) arablaridan ham yozib olingan. Bunday keng hududda, asosan, turkey elatlar va qisman turkiy bo'lmagan xalqlar orasida juda ham keng miqyosda tarqalgan, turkumlashishning barcha xillarini o'z ichiga olgan bunchalik ko'p tarmoqli biror-bir epik asarni dunyo folklorshunosligi bilmaydi. Shuning uchun ham ozarboyjon versiyasining 13 majlisini (dostonini) yozib olib, 1842-yilda uning inglizcha tajjimasini bilan nashr etgan diplomat A. Xodzko: "Osiyoda biror burchak yo'qki, u yerda Ko'ro'g'lining nomi aytilmasin. Hatto Bessarabiya va Moldaviyada ham uning otini eshitasiz. Agar adiblarning shuhrati va mashhurligi ularning o'quvchilarining soni bilan hisoblansa, unda Firdavsiy Ko'ro'g'lidan biroz ortiq bo'ladi", — deb yozgan edi. Olimlar "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarining kattakon ikki tarmoqqa bo'linishini qayd etadilar.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning ota jihatdan tog'asi (otasi Ravshanning tog'asi) Ahmad Sardor bilan, Ahmad Sardorning qirq yigiti, Hasan, Avazlar bilan munosabatlari ham muhim o'rin tutadi. Ahmad Sardorning oilaviy va siyosiy intrigalari, uning Go'ro'g'li va uning yigitlariga, ayniqsa, Avazxonga nisbatan g'arazi ayrim asarlarda ("Xushkeldi", "Avazning arazi" "Intizor", "Xoldorxon", "Xidirali elbegi", "Malika ayyor" va boshqalar) umumiy tarzda, epizodik xarakterda bo'lsa, bir qator dostonlarda ("Ahmad Sardor va Hasanshoh", "Ahmad Sardor va Avaz", "Avazxonning o'limga hukm etilishi") bunday harakatlar asar syujetining asosini tashkil etadi

Ikkinchidan, dostonlar orqali bolalarda ijtimoiy normalar va qadriyatlar uzluksiz tarzda tarkib toptiriladi. Doston qahramonlarining hayotiy tajribalari bolalarda ijtimoiy o'rganish mexanizmini rivojlantiradi. Xalq pedagogikasida dostonlarni o'rganish jarayoni rasmiy ta'limdan farqli ravishda, tabiatga mos, situativ va interaktiv tarzda amalga oshiriladi.

Uchunchidan, dostonlarning badiiy va retorik jihati dostonlarning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi. Dostonlar orqali til boyligi, obrazli ifoda vositalari va hikoya tuzilishi o'rganiladi. Bu esa bolalarda lingvistik va estetik rivojlanishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, dostonlarni pedagogik jarayonga integratsiyalash, ayniqsa erta bolalik va maktab yoshidagi o'quvchilar uchun samarali vosita hisoblanadi.

To'rtinchidan, dostonlar bolalarda emotsional intellektni rivojlantiradi. Qahramonlarining his-tuyg'ulari va qarorlariga guvoh bo'lish orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarishni o'rganadi. Bu esa ijtimoiy moslashuv va stressga chidamlilikni oshiradi. Zamonaviy psixo-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, og'zaki ijodning vizual va ritmik elementlari bolaning kognitiv faoliyatini sezilarli darajada mustahkamlaydi. Xalq pedagogikasida dostonlar bolalarning intellektual va kreativ ko'nikmalarini shakllantirishda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, dostonlarni o'qish va tinglash jarayonida bolaning tafakkur faoliyati faollashadi, hodisalarni tahlil qilish va qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash orqali mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyati rivojlanadi. Dostonlar asosida bolalarning ma'naviy-axloqiy me'yorlarini shakllantirishdagi imkoniyati juda keng. Dostonlarda jasorat, sadoqat, halollik, mehr-muhabbat kabi fazilatlar targ'ib qilinadi. Zotan, dostonlarni ta'limiy jarayonga muntazam tadbiq etilishi bolalarda axloqiy intellektni rivojlantiradi va ularni jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlarga moslashib borishga tayyorlaydi.

Beshinchdan, dostonlar jamiyatdagi urf-odatlar va an’analar orqali bolalarga yetkaziladi. Dostonlar jamoaviy kuylash, o‘qish yoki hikoya qilish shaklida ijro etilganda, ular bolalarda jamoaviy hissiyot va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantiradi. Bu hodisa sotsiologiyada “jamoaviy emotsional tajriba” deb ataladi. Dostonlarning jamoaviy xarakteri xalq pedagogikasi elementi bo‘lib, dostonlarni tinglash, birga o‘qish yoki dramalashtirish orqali bolalarni jamoaviy ishlash, hamkorlik qilish, ijtimoiy mas’uliyat va empatiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuning uchun dostonlar maktabgacha ta’limdan boshlab maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.

Globalizatsiya davrida milliy merosni saqlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan dostonlar milliy madaniy identitetni mustahkamlashda asosiy vositadir. Dostonlar bolalarda o‘z xalqi tarixiga, urf-odatlariga hurmat va qiziqish uyg‘otadi. Zamonaviy tadqiqotlarda qayd etilishicha, dostonlarni ta’lim jarayoniga tadbiiq etilishi yosh avlodda milliy g‘urur va madaniy ongini shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, dostonlar milliy madaniyatni, tarixiy voqealarni va qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishning eng samarali vositasi bo‘lib, ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega. Dostonlar orqali milliy qadriyatlarni singdirish, bolalarda o‘z xalqi tarixi va madaniyatiga qiziqish uyg‘otadi, ularni madaniy identitetni shakllantirishga yo‘naltiradi.

Dostonlar tarbiyaviy jarayonda “situativ o‘rganish” modeli sifatida ishlatiladi. Bu modelga ko‘ra, bolalar o‘rganayotgan ma’lumotni real yoki yaqin voqealar bilan bog‘lab, kontekstual tarzda qabul qiladi. Bolalarni dostonlar orqali tarbiyalash jarayoni ularda amaliy axloqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

Oltinchidan, dostonlarning axborot va texnologiyalar bilan integratsiya qilish imkoniyati. Raqamli dostonlar, animatsiya va audio-kitob shaklida taqdim etiladigan dostonlar bolalarda o‘qishga qiziqishni oshiradi, ularni interaktiv o‘rganish jarayoniga jalb qiladi. Multimedia orqali taqdim etilgan dostonlar bolalarda diqqat, xotira va kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar ham dostonlarni interaktiv shaklda o‘rganish samaradorligi an’anaviy o‘qish usullaridan yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Masalan, audio-vizual vositalar, dramatisatsiya, animatsiya va multimedia shaklida taqdim etilgan dostonlar bolalarda diqqatni jalb qilish va uzoq muddatli xotirada saqlash qobiliyatini oshiradi.

Dostonlar til va nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim vosita sifatida ishlatiladi. Dostonlarning boy leksikasi, obrazli ifodalar, sinonimlar va maqollar bolalarda so‘z boyligini oshiradi, nutq madaniyati va kommunikativ qobiliyatni shakllantiradi. Zero, dostonlarni pedagogik jarayonga integratsiya qilish lingvistik rivojlanish uchun ham samarali hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq pedagogikasida dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati kompleks va ko‘p qirrali bo‘lib, u shaxsning axloqiy, ijtimoiy, intellektual va estetik rivojlanishida beqiyos o‘ringa ega. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar dostonlarni interaktiv va multimedia vositalari bilan uyg‘unlashtirish orqali ularning tarbiyaviy potensialini maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Dostonlar xalq pedagogikasining bugungi va kelajak avlod tarbiyasidagi strategik vositasiga aylanishi mumkin.

Umuman olganda, xalq pedagogikasida dostonlar nafaqat tarixiy va badiiy meros sifatida, balki kompleks tarbiyaviy vosita sifatida ham o‘rganilishi zarur. Ular shaxsni

axloqiy, emotsional, kognitiv va ijtimoiy jihatdan rivojlantiradi, milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazadi va zamonaviy pedagogik amaliyotga integratsiya qilinadi. Shu sababli dostonlarni o‘rganish va ta’lim jarayoniga joriy etish xalq pedagogikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Karimov Sh. Xalq pedagogikasi va og‘zaki ijod. – Toshkent, 2025
3. M.B.Sharipova. “Xalq dostonlarini o‘rgatishning amaliy ahamiyati hamda dolzarabligi (“Alpomish” dostoni misolida)” <https://cyberleninka.ru/article/n/xalq-dostonlarini-orgatishning-amaliy-ahamiyati-hamda-dolzarabligi-alpomish-dostoni-misolida/viewer>